

**TALABALARDA O'QUV FANLARINI O'ZLASHTIRISHINING
MOTIVATSION JIHLTLARI**

Sherimbetova Zamira Shalabaevna

*Nukus innivatsion instituti Pedagogika, psixologiya va xorijiy tillar
kafedrasi professori*

zamirasherimbetova0975@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarda o'quv fanlarini o'zlashtirishining motivatsion jihatlari hamda ta'lim tarbiya jarayonida talabalarda yuza keladigan turli xil ijtimoiy psixologik xususiyatlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *o'quv faoliyati, motiv, tendensiya, faoliyat motivlari, determinizm, pedagogic texnologiyalar.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются мотивационные аспекты усвоения учащимися учебных предметов, а также различные социально-психологические особенности, возникающие у обучающихся в процессе обучения.*

Ключевые слова: *учебная деятельность, мотив, тенденция, мотивы деятельности, детерминизм, педагогические технологии.*

Annotation. *This article will talk about the motivational aspects of students' mastery of educational subjects, as well as about the various social psychological characteristics that come to the surface in students in the educational process.*

Key words: *educational activity, motive, trend, activity motives, determinism, pedagogical technologies.*

Kirish. *Respublikamizda so'nggi yillarda zamonaviy ta'lim tizimida talaba shaxsiga bo'lgan ob'ektiv talablarni yangilash, o'z ustida mustaqil ishlashni faol shakllantirish, professional pedagog shaxsining namunaviy modelini takomillashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Shu bois,*

«..mamlakatni modernizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun shart-sharoitlar yaratishning zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratish¹, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish», «...ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, o'quv rejalari va dasturlari mazmuni hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha soatlar taqsimotini kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikda fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari asosida shakllantirish»² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarning ijrosini ta'minlashda oliy o'quv yurtining talabalarida o'z ustida mustaqil ishlash faoliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari yuzasidan amaliy yechimlar topishga yo'naltirmoqda.

Talabalarda o'quv fanlarini o'zlashtirishining pedagogik-psixologik omillarini o'zlashtirish faoliyati borasida, xorij tadqiqotchilaridan V.F.Asmus, K.Aurin, J.P.Allen, A.Bergsonda J.Bezzington, X.G.Viddovson, R.Dekart, B.L.Esser, M.S.Knovles, I.Kant, M.E.Levinson, L.M.Richards, B.Srinoza va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

L.M.Mitining ta'kidicha, talabalarlarning o'z ustida ishlash qobiliyati darajasini o'rganish, kasbiy o'z o'zini rivojlantirish muammosi bilan uzviy bog'liq sanalib, uni tadqiq etish o'qituvchining o'z kasbiga qay darajada muvofiqligini aniqlashga keng imkon beradi⁴. Muallif mazkur ta'rifda, talabalarlarning ta'lim-tmoqda. Pedagogik faoliyatda har jihatdan mukammal mutaxassis bo'lib yetishishi, nafaqat kasbiy jihatdan balki, shaxs sifatida rivojlanish omillariga ham bog'liqdir. Ya'ni shaxs faoliyat sub'ekti sifatida takomillasha boradi.

Ye.V.Rudenskiyning so'zlariga ko'ra, talabalarlarning ijodiy faoliyati va o'z ustida ishlash malakalarini tahlil qilish, avvalo, kasbiy faoliyat deformatsiyasi fenomenini o'rganish bilan o'zviy bog'liq sanalib, u orqali pedagogning o'z-o'zini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4306-son Qarori.

vazifalardan qochish istagi hamda namoyon bo'lgan destruktiv hulq-atvor ko'rinishlari aniqlanadi⁵. Tadqiqotchi nazarida, ana shu masalalarni hal etish bo'lajak pedagoglarning mustaqil ishlash faoliyatini takomillashtiruvchi ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarini o'rganishga keng imkon beradi.

Yuqoridagilardan farqli o'laroq, tadqiqotchi A.K.Markova talabalarlardagi o'z ustida ishlash faoliyatining psixologik jihatlari masalasini o'zini o'zi baholash, — men tuyg'usining dinamikasi, fikrlash uslubi, shaxsiy maqsadlarni belgilash ko'nikmasi hamda sosial intellekt tushunchalari bilan tushuntirishga harakat qiladi. Tadqiqotchining fikricha, har bir shaxs uchun pedagogik faoliyat o'z-o'zini anglash faoliyatidir⁶. O'z-o'zini anglash jarayoni o'qituvchi shaxsiga xos individual malakani mazmunini ochib beradi. Demak, individual malaka bu talabalarlarning ijodiy faoliyati bilan bog'liq jarayon bo'lib, u kasbiy o'z-o'zini anglash,

Ba'zi tadqiqotlarda, o'z ustida ishlash fenomeni o'qituvchi faoliyatiga xos o'z-o'zini loyihalash, kasbiy o'sish, soha bo'yicha turli strategiyalar yaratish kabi tushunchalar orqali tahlil etilgan. Ushbu mazmundagi tadqiqotlar sifatida, B.V.Kaygorodov tomonidan olib borilgan tadqiqotni misol qilish mumkin. Muallifning fikricha, namunali o'qituvchi bu, o'z faoliyatini yangicha tashkil qila oladigan, o'zini o'zi takomillashtira oladigan shaxsdir. O'qituvchi o'zini o'zi tartibga solish funksiyasi orqali kasbiy jihatdan to'liq rivojlanib boradi.

Zamonaviy pedagogik psixologiya fanida —mustaqil ishlash faoliyatil tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan aniq ilmiy ta'riflanib, u quyidagicha

— Mustaqillik – qo'p qirrali pedagogik va psixologik jarayon bo'lib, u oddiy fenomen tushuncha emas balki, shaxsning yuqori fikrlovchi, sifatli aniq talabli ta'lim olish faoliyati sanaladi. Ya'ni ta'lim oluvchi aniq maqsad asosida o'quv vaziyatida hech bir kishining yordamisiz maqsadga erishishi hisoblanadi;

— O'zini o'zi faollashtirish – sub'ektiv holat bo'lib, u shaxsiy, individual faoliyat olib borish shuningdek, oliy maqsad qo'yish, ma'naviy ehtiyojlarni

— O‘z-o‘zini faollashtirish – bu shaxsning sub’ektiv faoliyatidagi ichki

— O‘z-o‘zini tashkillashtirish – bilimlarni egallashdagi shaxsning aqliy imkoniyatida paydo bo‘lib, u o‘quvchining muammo oldidagi aqliy, intellektual,

— O‘zini o‘zi boshqarish – faoliyatni boshlashdagi psixologik ta’minlanganlik yoki bilim va ko‘nikmalar haqidagi dastlabki fikrlar. Ushbu holat orqali o‘quvchi vazifalarni bajarishda jarayonlarni mustaqil boshqarib boradi;

— O‘zini o‘zi nazorat qilish – bajarilayotgan faoliyatning eng asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, bunda bajarilgan va o‘zlashtirilgan bilim orqali shaxs darajasi

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi uch yo‘nalish tanlab olindi va shu yo‘nalishlar bo‘yicha aniq yo‘naltirilgan usullar majmuasi ishlab chiqildi. Jumladan, birinchi yo‘nalishda o‘quv faoliyatiga umumiy munosabat motivatsiyasini tadqiq qilish usullari, ikkinchi yo‘nalishda o‘quv faoliyati komponentlari asosidagi munosabat motivatsiyasini o‘rganish usullari, uchinchi yo‘nalishda shaxs yo‘nalganligini o‘rganish orqali o‘quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini tadqiq qilish usullari; majmuasi tanlab olindi va uni amaliyotga tatbiq etish rejasini ishlab chiqildi.

Endi, har bir usulning (yoki yo‘nalishning) tadqiqot maqsadini bevosita amalga oshirishdagi vazifasi haqida qisqacha to‘xtalmoqchimiz.

Birinchi yo‘nalishga kiruvchi usullar majmusi “maktabga munosabat motivatsiyasi” deb nomlanadi. Chunki, har bir o‘quvchining o‘quv topshiriqlarini bajarishga bo‘lgan xayrixoxligi eng avvalo maktabga undagi ta’lim-tarbiya jarayoniga ijobiy yoki indifferent munosabatlari asosida ko‘riladi. Chunki, o‘quvchi shaxsidagi maktab ta’limiga umumiy munosabatlar tizimining baholanishi orqali har bir o‘quvchi bilan o‘quv faolligini oshirishga qaratilgan

tadbirlar majmuasini ishlab chiqish mumkin. Shu nuqtai nazardan dastlabki usullar majmuasiga N.G.Luskanova tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan “Maktabga munosabat motivatsiyasini baxolash” metodikasini asos qilib olish mumkin.

Xulosa. Olib borilgan nazariy-ilmiy tahlillar mavzu doirasidagi muammolarni, o‘quvchi shaxsining o‘quv faolligiga munosabat motivatsiyasini o‘rganish va tadqiq qilish bilan bog‘liq tadqiqotlarning bugungi kunda taqchilligi va shu bilan birga nihoyatda dolzarbligini ko‘rsatdi. Albatta, munosabat motivatsiyasi tushunchasi barcha psixologik fanlarning muhim ob‘yekt sifatida hamisha olimlarning diqqat markazida bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni: «Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori».- T.: «Sharq», 1997.
2. Bojovich L.I. Проблемы развития мотивационной сферы ребенка. - V kn. «Izucheniye motivatsii povedeniya detey i podrostkov».M«Pedagogika» 1972.
3. Vaysman R.S. K probleme razvitiya motivov i potrebnostey lichnosti v ontogeneze. «Voprosy psixologii», 1973, №5. s.23-40.
4. Djems U. Psixologiya. - M: «Pedagogika», 1991. - 368 s.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari.-T«O‘qituvchi»,1994.-95 b.